



## HOFIZ XORAZMIY TASAVVUFIY QARASHLARINING SHOIR QIT'ALARIDA AKS ETISHI

JDPU o`qituvchisi Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi

**Annotatsiya.** O'zbek tasavvuf adabiyotining shakllanishida Hofiz Xorazmiy ijodining o'rni beqiyosdir. Ijodkorning g`azal, qit'a, qasida, tarkibband, tarjeband, muxammas, marsiya, mustazod hamda ruboiy kabi janrlarga mansub she'rlari bo`lib, ularda Allohga hamd, payg`ambirimiz va me'roj tuni tasviri, tabiat tasviri, falsafiy, tasavvufiy, ishqiy mavzular tarannum etilgan. Xorazmiy she'riyatining asosiy mavzularidan bo`lgan tasavvufiy g`oyalar tasviridagi badiiy mahorat o`ziga xosdir. Ushbu maqolada shoirning orifona qit'asini sharhlash asnosida ushbu o'ziga xoslikka yana bir bor nazar tashlanadi.

**Kalit so`zlar:** qit'a, tariqat, tasavvuf, poklik, vahdat, vahdat ul-vujud, so`fiylik

**Abstract.** The role of Hafiz Khorezmi's work in the formation of Uzbek mystical literature is incomparable. The artist's poems belong to genres such as ghazal, qita, qasida, tarkibband, tarjeband, mukhamas, marsia, mustazad and rubai, in which there is praise to Allah, the description of our prophet and the night of Miraj, description of nature, philosophical, mystical and romantic themes are sung. Artistic skill in depicting mystical ideas, which are the main themes of Khorezm's poetry, is unique. In this article, in the context of the interpretation of the poet's orifona continent, this peculiarity will be looked at again.

**Key words:** continent, sect, Sufism, purity, unity, unity of existence, Sufism

Hofiz Xorazmiy o`z davrining yetuk ijodkorlari safida devonining mukammalligi va mavzu ko`lami kengligi bilan ajralib turadi. Shoir ijodida tasavvufona, pand-nasihati, ijtimoiy mavzudagi qit'alar o`rin olgan bo`lib, ularning hajmi 6 misradan 18 misragacha. Shoirning quyida tahlil etiladigan qit'asi tasavvufiy xarakterda hisoblanadi.

Adabiyotshunos olim Hamid Sulaymon o'z sa'y-harakati bilan yurtimizga London, Oksford, Kembrij, Parij kutubxonalaridan keltirilgan o'zbek adabiyoti, fani va madaniyati tarixiga oid eng mo'tabar manbalarning hech biri Hofiz Xorazmiy qo'lyozma devoni darajasida kashfiyot kuchiga ega emasligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

So`fizm adabiyoti namunalariidan bo`lgan mazkur qit'ani baytma-bayt tahlil etamiz.

Ahli ma'no hazratida shoh ermas ul kishi,

Kim, erur band-i taalluq birla doim muhtalo.

Birinchi bayt: dunyoga bog`lanib qolgan, muhtalo bo`lgan kishi ahli ma'no (o`zligini, Allohni anglab yetgan inson) orasida shoh emasdir.

<sup>1</sup> Hofiz Xorazmiy. Devon. Ikki kitobda. I kitob [Nashrga tayyorlovchilar: H.Sulaymon, F.Sulaymonova]. - Toshkent: 1981



Google  
Scholar



Orzu bandinda bo`lg`an bandayedur nomurod,

Har kim ozoda yurur olamda, uldur podsho

Ikkinchi bayt: orzu bandiga tushgan banda(tobe, qul) murodiga yetmas, har kimki olamda ozoda bo`lsa, u haqiqiy podshodir.

Kulba-yi ozodaliqning ostoni tuproqin,

Gar ko`zung bor ersa qilg`il jon ko`zinga to`tiyo.

Uchinchi bayt: ozodalik, poklik uyi ostonasi tuprog`ini jon ko`ziga to`tiyo qilgin.

Suvrat-i faqru g`inog`a yo`qtur hech e`tibor,

Molsiz ko`pdur g`ani-yu mol birla ham gado.

To`rtinchi bayt: birovga muhtoj bo`lmaslikning(faqru g`ino) holat-suvratiga e`tibor yo`q, mol–dunyosiz boylar(g`ani), dunyosi bo`lmagan kambag`allar(gado) ko`p

Ikki nay suvratda bir-birina o`xshar, vale

Biridin hosil bo`lur shakar, biridin bo`ryo.

Beshinchi bayt: ikki qamish ko`rinishi o`xshash bo`lsa ham, biridan shakar, yana biridan esa bo`yra hosil bo`ladi.

Gar safo izdar esang vahdat yo`linda bos qadam,

To qadamning peshgahindin sanga kelgay nido.

Oltinchi bayt: gar safo(soflik) istasang, vahdat(tanholik) yo`lini tut, to qadamning oldidan nido kelgay.

Kim, kerak bo`lsa safo, bo`lg`il mujarradkim, bo`lur,

Ob-i sofiy imtizoj-i xok birla besafo.

Yettinchi bayt: soflik kerak bo`lsa, mujarrad(ozod, tanho) bo`lgin. Chunki suv tanholikda sof, tuproqqa qorishganda esa nopok bo`ladi.

Ko`r tajarrud birla Iso manzilin favqal falak,

Bil taalluq birla Qorunning yerin taxtas-saro.

Sakkizinchi bayt: ko`rki, Iso tajarrud (tarkidunyo) orqali yuqori osmonni manzil tutdi, Qorun esa dunyoga bog`lanib qolganidan manzili yer osti bo`ldi.

Boqmayin suvratqa, Hofiz, ma`noga qilsang nazar,



Benavolar podshodur, podsholar benavo<sup>2</sup>.

To`qqizinchi bayt: Hofiz, agarda sen suratga emas, ma'noga nazar solsang, faqirlar podshodir, podsholar esa faqir.

Qit'aning umumiy mazmun-mohiyati borasida shunday xulosa qilishimiz mumkin: Hofiz Xorazmiy ushbu qit'asida haqiqiy poklik, chin soflik ko`ngil pokligi ekanligini rad etib bo`lmas dalillar, go`zal o`xshatishlar orqali tasvirlaydi.

Birinchi baytda shoir bu o`tkinchi dunyoga ko`ngil qo`ygan inson ahli ma'no, ya'ni o`zligini, Allohni anglab yetganlar huzurida shohlikdan mahrum ekanligini uqtirar ekan, keyingi baytda ushbu fikrining davomi sifatida orzu-havasdan kechganlarni ozoda deb biladi hamda aynan shunday ozodalar haqiqiy podsho ekanligini ta'kidlaydi.

Uchinchi baytda ijodkor ozodalik-u poklikni baland rutbada tutish lozimligiga urg`u beradi. Hatto ushbu faoliyatni har bandaning asosiy vazifasi deb biladi. Keyingi misralarda shoirning bu keskin qarorining sabab-mohiyati ochilgandek bo`ladi. Ya'ni to`rtinchi baytda ijodkor bu dunyoda yolg`iz Holiqqa emas, balki mahluqot(Alloh yaratgan insonlar)ga muhtojlik holati kuchayib ketganidan fig`on chekadi. Shu o`rinda yana bir narsaga e'tibor qaratishimiz lozimki, Xorazmiy "birovga muhtoj bo`lmaslik" degan tushuncha ortida ikki xil mazmuni yoritadi: Allohga tavakkul hamda dunyo noz-ne'matlariga ehtiyojsizlik. Aynan shu ikki xususiyat tasavvufda asosiy maqomotlardan hisoblanadi. Keyingi misralarda shoir fikrining dalili o`laroq, insonlar toifasini qamishga qiyos etadi. Ma'lumki, shakarqamish hamda oddiy qamish o`simligi shakl jihatdan o`xshash bo`lsa-da, biridan oyoq ostida toptaluvchi bo`yra, yana biridan esa totli shakar olinadi. Shu singari insonlar jisman o`xshash shakl-shamoyilga ega bo`lsalar-da, Alloh nazar soluvchi qalbning holati nuqtayi nazaridan turli darajotga egadirlar. Mazhar(qalb)ning pokligiga erishmoq uchun esa vahdat(tanholik) yo`lini tutmog`i lozimdir. Tasavvuf, tariqat va komillik borasida chuqur izlanishlar olib borgan olim Najmiddin Komilov vahdat tushunchasiga "vahdat va kasrat olami birlashib, yagona vujudni tashkil etadi. Olam yagona Ruh tajallisigina emas, balki shu ruhning o`zidan iborat"<sup>3</sup>, - deya ta'rif berarkan, Farididdin Attorning "Ey din kishisi, darhaqiqat, nimaiki ko`rsang, bu aslida Haqning o`zidir" kabi "vahdat ul-vujud" nazariyasiga oid fikriga qarshi chiqishni qoralaydi. Xorazmiyning yuqoridagi misralarida vahdat istilohini ikki xil talqinda tahlil etishimiz mumkin:

Birinchi talqin	Ikkinchi talqin
Vahdat- bu Allohning yagonaligi, barcha yaratilarda Allohning tajallisini ko`ra olish. Ushbu tushuncha "vahdat ul-vujud" nazariyasiga oiddir.	Vahdat- bu insonning bu olamning o`tkinchi xoy-havaslaridan kechib, o`zga insonlarga emas, balki faqat Allohgagina tayanishidir.

<sup>2</sup> Hofiz Xorazmiy. Devon. 2-kitob. Toshkent-1981, B297, 290-bet

<sup>3</sup> Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Toshkent "Movarounnahr"- "O`zbekiston"-2009, B448, 317-bet



E'tiborli jihati shundan iboratki, shoir yuqoridagi ikki xil ma'noni bir vaqtning o'zida mujassam eta olgani bois biz o'qirman sifatida ushbu baytni ikki tomonlama tahlil etish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu holat badiiy adabiyotda iyhom san'atiga (bir so'z orqali ikki xil ma'noda qo'llay olish) o'xshash holatni yuzaga keltirgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Hofiz Xorazmiy o'z davrining yetuk shoiri sifatida o'z ijodiga tasavvufiy qarashlarini yuksak mahorat ila singdira olgan. Shoir qit'alaridagi falsafiy mushohada yassaviyona javonmardlik g'oyasi hamda naqshbandiylik tariqati g'oyalari ("Qo'ling mehnatda, diling Allohda bo'lsin") omuxtalashgan holatda aks etilganligini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hofiz Xorazmiy. Devon. 2-kitob. Toshkent-1981, B297
2. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Toshkent "Movarounnahr"- "O'zbekiston"-2009, B448
3. Alisher Navoiyning asarlari tilining izohli lug'ati, to'rt tomlik, O'zbekiston SSR. Toshkent. "Fan" 1983
4. Adabiyotshunoslik asoslari. T. Boboyev. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti -2001, B557